

ABDULLA QODIRIY IJODIGA ADABIY TANQIDCHILIK MUNOSABATI

Alijonova Dilshodaxon Qahramon qizi

Farg'ona davlat universiteti 4-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada o'zbek romanchiligi asoschisi Abdulla Qodiriy ijodiga adabiy tanqidchilikning turli davrlardagi munosabati tahlil qilinadi. . Qodiriy ijodiga bo'lgan adabiy tanqidchilik munosabati uch bosqichni o'z ichiga oladi: 1) yozuvchining o'ziga zamondosh tanqid; 2) sovet davridagi ideologik bosim ostidagi tanqid; 3) mustaqillik davridagi ilmiy-ob'ektiv yondashuv. Ushbu maqolada ushbu bosqichlar tahlil qilinib, Qodiriy ijodining badiiy-estetik qimmati va uning adabiyotimiz taraqqiyotidagi o'rni yoritiladi.

Adibning "O'tkan kunlar" va "Mehrobdan chayon" romanlarida aks etgan milliy uyg'onish g'oyalari, tarixiy haqiqatning badiiy talqini, obrazlar tizimi hamda til uslubidagi yangiliklar o'rganiladi. Shuningdek, XX asr boshidan hozirgi kungacha bo'lgan tanqidiy qarashlarning evolyutsiyasi yoritiladi.

Kalit so'zlar: Abdulla Qodiriy, adabiy tanqidchilik, o'zbek romani, tarixiy roman, milliy uyg'onish, obrazlar tizimi, badiiy talqin.

Kirish

Abdulla Qodiriy o'zbek adabiyotida romanchilik maktabini yaratgan buyuk adib hisoblanadi. Uning ijodi XX asr boshlaridagi ma'rifiy harakatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, milliy ong va tafakkurning shakllanishida muhim o'rin tutadi. Qodiriy asarlari yaratilgan davrdanoq adabiy tanqidchilar e'tiborini tortib kelgan va turli davrlarda turlicha baholangan.

Annotation: This article analyzes the attitude of literary criticism toward the works of Abdulla Qodiriy, the founder of Uzbek novelism, across different historical periods. The critical reception of Qodiriy's творчество can be divided into three stages: 1) criticism contemporaneous with the writer; 2) criticism under ideological pressure during the Soviet period; 3) a scientific and objective approach in the period of independence.

The article examines these stages and highlights the artistic and aesthetic value of Qodiriy's творчество, as well as his role in the development of Uzbek literature. The novels "O'tkan kunlar" and "Mehrobdan chayon" are analyzed in terms of their reflection of national awakening ideas, artistic interpretation of historical reality, system of characters, and stylistic innovations in language. In addition, the evolution of critical views from the early 20th century to the present day is explored.

Keywords: Abdulla Qodiriy, literary criticism, Uzbek novel, historical novel, national awakening, system of characters, artistic interpretation.

Introduction

Abdulla Qodiriy is considered a great writer who founded the school of novel-writing in Uzbek literature. His творчество is closely connected with the enlightenment movements of the early 20th century and plays an important role in the formation of national consciousness and thinking. From the time his works were first created, they have attracted the attention of literary critics and have been evaluated differently across various periods.

Muhokama va natijalar

Qodiriy hayotlik davrida uning asarlari atrofida jiddiy adabiy munozaralar bo‘lib o‘tgan. Bu munozaralar o‘zbek adabiy tanqidchiligining shakllanish bosqichini ko‘rsatishi bilan muhimdir.

Qodiriy “O‘tkan kunlar” romanini tanqid qilish niyatida bo‘lgan Sotti Husayn haqida shunday yozadi: “Bundan biror yillar muqaddam o‘rtoq Sotti Husayn “O‘tkan kunlar”ni tanqid qilish niyatida bo‘lganligini menga izhor qilib, yordam so‘raganida unga xursandligimni bildirgan, “Agar siz shu niyatingizda sobit qolsangiz, tanqidchilikdagi bir nuqsonimizni yo‘qotasiz!” degan, kerakli ma’lumotlar berib, hatto meni roman yozishga havaslantirgan Misr fuzalosidan ustoz Jo‘rji Zaydon bilan tanishtirib, Jo‘rji Zaydonning roman va g‘ayri (boshqa) asarlarini Sotti Husaynga tavsiya qilib va orzusi bo‘yicha tarjimai holimni ham yozib bergan edim” .

Ushbu epizod Qodiriyning tanqidchilikka qanchalik ochiq va konstruktiv yondashganini, adabiy munozarani rivojlanish omili deb bilganini ko‘rsatadi.

Qodiriy romanning yozilish metodikasini quyidagicha izohlagan: “Didaktika usulini ko‘proq qo‘llashning sababi “O‘tkan kunlar”ning ommamiz saviyasiga qarab yozilishidandir. Ma’lumki, bizning omma to shu kungacha ham o‘rta asr doston va hikoyalari bilan oziqlanib keladir. Ommaning shu holini nazarga olganda, barmoq bilan sanarlik besh-o‘ntagina (ular ham o‘z hunarlarida no‘noqlardirlar) yoshlarimiz uchun “so‘nggi priyom”ni berish tishi chiqmagan bolaga qurt shimitish kabi bo‘lar edi” .

Bu fikrlar Qodiriyning o‘z asarini yozishda o‘quvchi ommaning tayyorlik darajasini hisobga olganini, ammo shu bilan birga adabiyotni rivojlantirish vazifasini ham oldiga qo‘yganini ko‘rsatadi.

Qodiriyning hajviy asarlari (“Toshpo‘lat tajang”, “Kalvak maxzum” va boshqalar) o‘zbek adabiyotida satirik tanqidning yorqin namunalari. Adabiyotshunos Naim Karimov ta’kidlaganidek, bu asarlarda “yangi jamiyat bilan hamqadam bo‘la olmayotganlar kulgi ostiga olinadi, ular tilidan sho‘ro tuzumi yangiliklariga aytilayotgan tanqidiy fikrlar ham kulgili, demak, ular rad etilishi lozimdek, biroq yozuvchi shu rad etilishi lozimdek fikrlarni salbiy qahramon tilidan aytib, ularga o‘zining g‘oya va xalqning dardini, alamlarini singdiradi” .

1937-yilda Qodiriy “xalq dushmani” sifatida hibsga olinib, 1938-yil 4-oktabrda otib tashlangan . Ushbu davrda uning asarlarini o‘qish, o‘rganish va tanqid qilish taqiqlangan edi. Qodiriy nomi o‘zbek adabiyotidan o‘chirilgan, asarlari kutubxonalardan olib tashlangan.

1960-yillardan boshlab Qodiriy ijodiga qiziqish qayta tiklana boshladi. “O‘tkan kunlar” qayta nashr etildi, “Mehrobdan chayon” ham o‘quvchilarga yetib bordi. Ammo bu davr tanqidi ham ma’lum ideologik chegaralar doirasida olib borildi. Asarlarda ijtimoiy adolatsizlikni fosh etish, chor mustamlakachiligiga qarshi kurush kabi mavzular birinchi o‘ringa qo‘yildi.

Mustaqillik yillarida Qodiriy ijodiga bo‘lgan munosabat tubdan o‘zgardi. 1991-yilda adib “Mustaqillik” ordeni bilan taqdirlandi, 1994-yilda esa Abdulla Qodiriy nomidagi O‘zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta’sis etildi .

Akademik Naim Karimovning “Abdulla Qodiriy zamondoshlari” kabi fundamental tadqiqotlari adib ijodini yangi bosqichda o‘rganishga asos bo‘ldi. Ushbu kitobda “adib biografiyasiga, yozgan katta-kichik asarlariga qayta va qayta murojaat etiladi”, “adib bilan uchrashib suhbatlashgan ziyolilarning e’tiroflari, o‘z vaqtida asarlarini boshqa tillarga o‘girgan tarjimonlarning fikrlari yoki romanlarini miriqib o‘qigan ayrim kitobxonlarning xotiralari” o‘rin olgan .

Mustaqillik davrida Qodiriy asarlarining badiiy tahlili, til va uslub xususiyatlari chuqur o‘rganilmoqda. Ilmiy tadqiqotlarda adib asarlaridagi “uyushiq bo‘laklarning san’atkorona tuzilishi”, “musiqiylik va rang-baranglik” masalalari tahlil qilinmoqda .

Qodiriy asarlari leksik imkoniyatlari haqidagi tadqiqotlarda yozuvchining “jonli tildagi qo‘llanishni tanlagani”, “xalq tiliga oid qo‘llanishni ma’qul ko‘rgani” qayd etiladi. Matnshunoslik nuqtai nazaridan yozuvchining “so‘z so‘zlashda va ulardan jumla tuzishda uzoq andisha kerak” degan prinsipiga amal qilgani ko‘rsatiladi .

Zamonaviy qodiriyshunoslikda qiyosiy tahlillar ham muhim o‘rin tutmoqda. Jumladan, Kamola Ikramovaning tadqiqotida Abdulla Qodiriy va Jeyn Ostin asarlarida urf-odatlar va marosimlarning ifodalanishi qiyosiy o‘rganilgan.

B. Hayit sobiq ittifoqdagi chiqishlardan farqli o‘laroq ayrim muloqazalarni bildirdi.

1. «O‘tkan kunlar»da «Ho‘qand xonligi va Rusiyaning Turkistonga hujumi oldidagi hayot tasvir etilgan»ligini ochiq yozdi.

2. Abdulla Qodiriyning ijodi «na sovetlar birligida va na Ovro‘pada» mukammal o‘rganilmayotganini aytdi.

3. B. Hayit fikricha, adibning o‘zbek romanchiligi maktabining asoschisi ekanligini har kim har doim zikr etadi. «Lekin sovet adabiyotshunoslari uni mafkura masalasida ayblaydilar, — deya yozadi u va I. Sulstonov fikrlariga piching aralash murojaat etadi, — chunki u «jadidchilik harakati ta’siri ostida qolgan, Turkistonning

Rusiya tarafidan qo'shib olinishining taraqqiyparvarligini sezmagani va sinfiy kurashni o'z asarlarida yaqqol ko'rsatolmagan» emish».

4. Adib oqlangandan keyin, albatta, uning asarlari nashr qilina boshlandi. Biroq «O'tkan kunlar»ning 1958 yildagi nashri ilgari nashrlardan farqli edi. B. Hayit roman matnlarini qiyoslab, ba'zi o'rinlar tushirib qoldirilganini, ayrim jumlar tahrir etilganini ta'kidlaydi. Jumladan, roman oxirida Otabekning «o'ris bilan to'qnashma»da shahid bo'lganligi iborasi «chor askarlari bilan to'qnashish»da birikmasiga o'zgartirilganligini misol qilib keltiradi.

Albatta, B. Hayit maqolasida Abdulla Qodiriy ijodining favqulodda yangi, kutilmagan talqinlari sezilmaydi. Biroq unda «millatlar turmasi»da aytish va yozish mumkin bo'lmagan ayrim gaplar bor. Aynan adabiy siyosat e'tiboridan talqindagi farqni bilish qiyin emas. Tabiiyki, kommunistik jamiyat sari intilayotgan tuzumga nisbatan bunday shak-shubhalar uning muxolifatdagi juftliklari tomonidan so'z bo'roni ila qarshilanishi shart edi. Adabiyot maydonidagi hukmron siyosatning talabi shunday edi.

Abdulla Qodiriy ijodining Amerikadagi muxlisi X. Murfi 1992 yilda «O'rta Osiyo musulmonlari. O'zlikning ifodalanishi va o'zgarishlar» nomli to'plamda «Abdulla Qodiriy va bol'sheviklar. Islohdan inqilobgacha» degan maqola bilan qatnashadi. Olim bunda adibning «Baxtsiz kuyov», «Juvonboz», «Jinlar bazmi», «Tinch ish», «Otam va bol'shevik» kabi asarlarini talqin etish jarayonida Abdulla Qodiriyning ijtimoiy qarashlarini o'rganadi.

Uning fikricha, Abdulla Qodiriy ba'zi mulla-imomlarni tanqid etgan, ammo u hech qachon islom diniga qarshi yozmagan; shuningdek, adibning ijtimoiy qarashida jamiyatni isloh yo'li bilan tuzatib bo'lmaydi, balki inqilobiy yo'l bilangina jamiyatdagi yomon odatlardan qutulish mumkin degan g'oya mavjud.⁽¹⁰⁾ Albatta, amerikalik olimning «O'tkan kunlar» va «Mehrobdan chayon»dek romanlarni struktural metod asosida talqin qilishi biz uchun yangilikdir. Uning tajribasi bizning adabiyotshunoslikda shu yo'nalishdagi tadqiqotlar maydonga kelishi uchun bir namuna bo'lishi qam mumkin. Biroq Abdulla Qodiriy romanlarini, ularda xalq donoligining hikmatlari o'z ifodasini topganligini yoki xalq kulgisidan adib juda o'rinli foydalanganini o'zbek olimlari juda yaxshi biladi.

Demak, X. Murfining tadqiqoti bizda mavjud ilmiy ishlarni to'ldiruvchi va ayni chog'da, tadqiqot uslubidagi originalligi bilan farqlanib turuvchi muqim ishdir.

Ma'lum bo'lmoqdaki, sal kam bir asr mobaynida xorij olimlari Abdulla Qodiriy ijodiga turli aspektdan yondashib tadqiq etganlar. Albatta, ba'zi maqolalarda tuzumlararo g'oyaviy kurash ta'siri, ayrimlarida o'ta sub'ektlashuv holatlari kuzatiladi. Shuningdek, Abdulla Qodiriy ijodini ikkinchi bir millat yozuvchilari ijodiga qiyosan

xolis o'rgangan yoki jahon adabiyotshunosligi metodlari kontekstida o'rinli talqin etgan olimlar ham bo'ldi.

Qodiriyshunoslik tarixidagi bu omillar, birinchidan, o'zbek adabiyoti, xususan, Abdulla Qodiriy ijodini dunyo adabiy jamoatchiligiga keng tanishtiradi; ikkinchidan, nafaqat mumtoz o'zbek adabiyoti durdonalari, balki XX asrning iste'dodli adiblarining ham jahonning mashhur ijodkorlari qatorida o'z munosib o'rinlari borligini bildiradi. Bunday haqiqatni boshqalarga yanada teran anglatish uchun o'zbek adabiyoti namunalari keng miqyosda dunyoga chiqishi va o'zbek ziyolisi bu sohada chinakam fidoyi bo'lishi lozim.

Xulosa

Abdulla Qodiriy ijodi adabiy tanqidchilik tarixida turli bosqichlarni bosib o'tgan bo'lsa-da, o'z badiiy qimmatini yo'qotmadi. Mafkuraviy bosimlarga qaramay, uning asarlari bugungi kunda ham dolzarbligini saqlab qolmoqda.

Qodiriy o'zbek adabiyotida romanchilik maktabini yaratgan, milliy tafakkur rivojiga ulkan hissa qo'shgan buyuk adibdir. Uning asarlari nafaqat adabiy, balki ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatga ham ega bo'lib, bugungi adabiy jarayonda ham muhim o'rin tutadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Karimov, N. Abdulla Qodiriy merosi va o'zbek romanchiligi taraqqiyoti. – Toshkent: Akademnashr, 2011.
2. Rasulov, A. Qodiriy fenomeni: Adabiy-estetik talqin. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2015.
3. Normatov, U. XX asr o'zbek adabiy jarayoni va Qodiriy ijodi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2018.
4. Xudoyberganov, E. Qodiriy asarlarining poetik tahlili. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2014.
5. G'aniyev, I. Milliy roman va Qodiriy an'anasining davomiyligi. – Buxoro: BuxDU, 2020.
6. Karimov B. "O'tkan kunlar" ibrati. – T.: Mashhur press. 2019.
7. Karimov B. Abdulla Qodiriy va germeneytik tafakkur. – T.: Akademnashr. 2014.
8. Karimov B. Ikka daho-ikki benaho (Bobur va Qodiriy). – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. 2020.